



“TASDIQLAYMAN”

“NKMK” AJ

**Inson resurslari bo'yicha
direktor**

F.M. Hoshimov

**“NKMK” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni
ko‘rib chiqish natijalari haqidagi
HISOBOT**

2026-yil 30-iyun holatiga

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJga 2026-yilning o‘tgan davri mobaynida korrupsiyaga oid jami **9** ta yozma shaklda murojaat kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar asosida **3** ta xizmat tekshiruvi olib borilgan va **6** ta o‘rganish o‘tkazilib (*1 tasi bo‘yicha o‘rganish tugallanmagan*), tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.

Shuningdek, murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasi yuzasidan **7** tasi bo‘yicha tushuntirish berilgan bo‘lsa, **1** tasi bo‘yicha asoslar mavjud bo‘lganligi sababli qisman qanoatlantirilgan hamda tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xati yuborilgan.

4 nafar fuqaro tomonidan yuborilgan **4** ta murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (*yoki murojaatning bir qismi*) vakolat doirasida ko‘rib chiqish uchun tegishliligi bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish davomida, aniqlangan qoidabuzarlik holatlari yuzasidan **7** nafar xodim (**5** nafari rahbar) intizomiy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan **1 ta** holatda jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Korrupsion xavf xatarlarni minimallashtirish maqsadida:

2026-yil 4-martda “NKMK” AJning 2025-yil 789-sonli buyrug‘iga asosan o‘tkazilgan korrupsiyaviy va komplayens xavf-xatarlarni aniqlash hamda baholash natijalari bo‘yicha ularni bartaraf etish, kelgusida oldini olish, muvofiqlikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi;

2026-yil 29-iyunda “NKMK” AJda korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini puxta tahlil qilgan holda ularni bartaraf etish chora-tadbirlar Dasturi ishlab chiqilib, ijrosi nazoratga olindi.

Komplayens xizmati boshlig‘i

R.F. Avezov